

**SA'DULLA SIYOYEVNING “DASHTI QIPCHOQ LOCHINI”
ASARIDA TARIXIY SHAXS OBRAZI TALQINI**

Sodiqov Muslidin Uzoqboy o‘g‘li

Samarqand davlat universiteti,

filologiya fakulteti 4-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: prof. A.Nasirov

Annatatsiya

Tarixiy qissalarda obraz yaratish, uning badiiy funksiyasi, tarixiy voqelikning haqqoniy talqinlar va ijodkor badiiy mahorati qiyosiy tahlil qilingan. Sa'dulla Siyoyevning bu tarixiy qissasida hayot voqeligining badiiy ifodasi, qahramon yaratishdagi o‘ziga xos ulubi haqida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so’zlar: badiiylik, tarioxiylik, ijodkor, mahorat, obraz, talin, voqelik, xususiyat, tahlil, qarashlar.

**“СОКОЛ СУДЬБЫ КИПЧОК” СА’ДУЛЛЫ СИЁЕВА
ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ИСТОРИЧЕСКОЙ ФИГУРЫ В ПОВЕСТИ**

Садиков Муслидина Узокбай угли

Узекистан, Самаркандский государственный университет,
студентка 4-курса филологического факультета

Аннотация:

Сравнительно анализируются создание образа в исторических рассказах, его художественная функция, правдивые интерпретации исторической действительности, творческие художественные навыки. В этом историческом рассказе Саидуллы Сыёева есть размышления о художественном воплощении действительности жизни, об уникальной заслуге создания героя.

Ключевые слова: художественность, историчность, творец, мастерство, образ, талант, действительность, характеристика, анализ, взгляды.

“FALCON OF DESTINY KIPCHOK” SA'DULLA SIEEV

INTERPRETATION OF THE HISTORICAL

FIGURE IN THE STORY

Sadikov Muslidin son of Uzoghboy

Uzbekistan, Samarkand State University,

4 th year student of the Faculty of

Philology

Annotation:

The creation of an image in historical stories, its artistic function, truthful interpretations of historical reality, creative artistic skills are analyzed comparatively. In this historical story by Sadulla Syyoev, there are reflections on the artistic embodiment of the reality of life, on the unique merit of creating a hero.

Key words: artistry, historicity, creator, skill, image, talent, reality, characterization, analysis, views.

Qadimiy Turon o‘lkasi ko‘plab adiblar, buyuk hukumdorlarni, shoiru ulomalarni, olimu fuzalolarni tarbiyalab yoyaga etkazgan zamin hisoblanadi. Ana shunday shoh va shoirlardan biri Abulfath Muhammad Shayboniyxondir. O‘z davrining etuk davlat arbobi, mohir sarkarda va iste’dodli shoiri sifatida e’tirof etilishi ham bejiz emas. Muhammad Shayboniy O‘zbek xonligi hukmdori Abulxayrxonning nabirasi, Shohbudog‘ sultonning o‘g‘li. Muhammad Shayboniyxonning bobosi Abulxayrxon XV asrning yigirmanchi yillarda Sharqiy Dashti Qipchoqda o‘z hukumronligiga asos solgan. XIII-XIV asrlarga kelib o‘zbeklar Dashtiqipchoq cho’llarida o‘zlarining “Oq o‘rda” deb atalgan davlatini

tashkil qilishgan. Bu ko‘chmanchi o‘zbek davlatini tashkil qilishgan. Bu ko‘chmanchi o‘zbek davlati “Oltin o‘rda”dan ajralib chiqqan bo‘lib, uning markazi Sirdaryoning o‘rta oqimidagi Turkiston (to‘g‘rirog‘I Sig‘noq) shahri bo‘lgan, uning asoschisi esa Abulkayrxon edi” [1, 10-bet], - deb yozadi qomusiy olim Xudoyberdi Doniyorov. O‘z davrining buyuk shaxsi Abulkayrxon boshchiligidagi bu davlat XV asrning ikkinchi yarmiga kelib yanada mustahkamlandi. Abulkayrxonning (1412-1468-yil) vafot etishi bilan u shakllantirgan birlik parchalanib ketadi. Muhammad Shayboniyxon hayoti o‘g‘ir va sinovli kechgan. U yoshligidayoq, ota-onasidan yetim qoladi, shundan keyin bobosi Абулхайрхон qo‘lida kamol topadi, keyinchalik esa, Qorachabek oilasida tarbiyalandi. Ma’lum muddat Turkiston va O‘tror hukumdori Muhammad Mazid unga homiylik qiladi. “O‘zbekiston tarixidagi xonlar va sultonlar orasida hukm surgan ziddiyatli tarixiy davri, o‘rni faoliyati, poetik ijodi hamda fojiali hayoti bo‘yicha Muhammad Shohbaxt Shayboniyxonga o‘xshashi yo‘qdir” [2, 62-bet], - deb yozadi davlat huquqi tarixi nbian shug‘ullangan mashhur olim Z.Muqumov. Tarix haqiqatiga nazar tashlansa, haqiqatdan ham murakkab hayot yo‘lini bosib o‘tganligini guvohi bo‘lamiz. Tarixiy manbalarda qayd qilinganidek, “Bir tomoni okean, ikkinchi tomoni Turkiston, uchunchisi – Darband, to‘rtinchisi – Xorazm, beshinchisi – Astrobod bilan chegaradosh bo‘lgan Dashti Qipchoq o‘zbeklari yurtida 1451-yilda dunyoga keldi” [3, 34-bet]. Chunki, juda katta umidlar bilan bobosi Abulkayrxon Shayboniyxonga “Shohbaxt”deb ism qo‘yadi. Voyaga yetgandan so‘ng bobosining parchalangan davlatini tiklash harakatini boshlaydi. Bu paytda Temuriylar sulolasida ichki nizolar avj olgan, har kim o‘zicha hukumdar va hukumdarlik talab etgan, toji-u taxt talashayotgan, xalq urushlardan charchagan davr hukumron edi. Bu holatdan Shayboniyxon foydalanadi va Movaruonnahrga yurishlarini boshlaydi. “Muhammad Shayboniyxon Buxoroda Boburga qarshi jangga butun kuch-qudrati bilan tayyorlana boshlaydi. Muhammad Shayboniyxon bilan Bobur o‘rtasida Buxoro va Samarqand oralig‘idagi Saripul degan joyda hal qiluvchi uruish bo‘ladi.

Shayboniyxon bu urushda “to‘lg‘ama” degan harbiy hiyla ishlatadi, natijada g‘alaba qozonadi. Bobur Samarqandga chekinishga majbur bo‘ladi. Shayboniyxon ta’qib keladi va Samarqandni olti oy qamal qiladi” [4, 84-bet]. Bu faktlarda asoslar mavjud bo‘lib Samarqandi olti oy qamal qiladi va jangsiz qo‘lga oladi. Iste’dodli adib Sa’dulla Siyoyev bir qator tarixiy asarlari bilan o‘quvchilar qalbidan o‘rin olgan ijodkorlardan biridir. Adibning tariximizni o‘qilmagan sahifalaridan ma’lumot beruvchi “Yassaviyning so‘ngi safari” tarixi romanini ham alohida qayd etish lozim. Yozuvchining “Dashti Qipchoq lochini” (Muhammad Shayboniyxon qissasi)da ilk marta tarix haqiqatidan kelib chiqib uning badiiy siymosini yaratgan yirik nasriy asar ekanligini ham qayd etish joizdi: “Muhammad Shayboniyxon haqida hozircha o‘zbek adabiyotida ayrim tarixiy mavzudagi hikoyalarni mustasno etganda birorta qissa yoki roman yaratilmagan edi. Sa’dulla Siyoyev o‘zbek adabiyotida mazkur bo‘shliqni to‘ldirish uchun mas’uliyatli vazifani o‘z zimmasiga olib, juda katta mashaqqat va zahmatlar evaziga mazkur qissani yaratadi” [5, 3-bet]. Darhaqiqat, haqli tarzda qayd qilinganidek asarda buyuk tarixiy shaxsning o‘ziga xos xarakter xususiyatlari, ruhiy-ma’naviy olami haqqoniy talqin etilganligini kuzatish mumkin. Chunki bir qator badiiy asarlarda adibning salbiy qiyofasi talqin etilgan bo‘lsa-da, ammo turli tarixiy manbalarning guvohlik berishicha Muhammad Shohbaxt o‘ta murakkab shxs sifatida qayd etilaib, o‘z davrining iste’dodli hukumdori, shoiri sifatida e’tirof etiladi. Muhammad Shohbaxtning bobosi Abulxayrxon vafotidan keyingi hayoti ham ziddiyatlarga to‘la, uning har bir harakati nazorat ostida o‘tgan bo‘lib, ayniqsa, Mazid Tarxon homiylik qilgan yillar o‘ziga xos bir davr bo‘lganligini kuzatish mumkin. Mazid Tarxonning avlodи aslida temuriy hukumdlarga borib taqalardi, chunki Abulxayrxon qaynotosi bo‘lmish Mirzo Ulug‘bekka hurmati yuzasidan Mazid Tarxonga Turkiston va O‘tror shaharlarining bekligini in’om qilgan, ishonchli kishilaridan biri sifatida qarar edi. Shuning uchu Abulxayrxonning vafotidan so‘ng, bir muddat Muhammad Shohbaxt va ukasi Sulton Mahmud Mazid tarxonning O‘trordagi qo‘rg‘onida yashgan. Har bir davrdagi

o‘ziga xos ziddiyat shu vaqtarda ham, hukmrobnlik qilgan, bu tushunchani ilgari surishimizga sabab, Mazid Tarxonning mulozimlaridan biri ma’lum bir vaqt o‘tgandan so‘ng, unga qarata, Bek og‘a siz qalbi daryo insonsiz, ammo bu etimchalarni boqib o‘zingizga tashvish orttirmadizmi, degan fikrni bayon etib alohida qayd etadiki: “Etim qo‘zi asrasang, og‘zi burning moy etar, etim bola asrasang... U yog‘I o‘zlariga ayon, bek og‘a. xususan, ulkan og‘lonning diydasi qattiq aning ot chopishini ko‘rsangiz, o‘q otishini ko‘rsangiz, og‘a. Merganlikning hovasini olibdi, battol! Egar ustida turib, osmondagи qushni otib tushurdi. Hozircha u bola temirqanot, ulg‘aysa, ma’zur tuting, sizning o‘rningizga ham ko‘z tikishi turgan gap. Burgutga aylanib, jigaringizni cho‘qimasin deyman-da, bek og‘a” [5, 8-bet]. Saltanat vabeklikning ziddiyatlari, ichki tinimsiz kurashlarini ko‘p ko‘rgan Mazid tarxondek shaxs ham bu tushunchalardan so‘ng uzoq xayolga toladi. Uning nigohlarini ko‘z o‘ngida jonlantirib ham ko‘radi, ammo yaqini aytgan fikr “aylanib kelib” xayolini chulg‘ab olardi. Abulkayrxon unga doimo yaxshjilik qilganini, muqaddas ikki shahar bekligini unga hech ikkilanmasdan taqdim qilgan edi, ammo o‘z xayollari bilan olishar ekan, hozir ikki etimni shahardan haydasam Sultonning ruhi azob chekmaydimi, degan o‘ylar iskanchasida qoladi. O‘z botinidagi ziddiyatlar bilan kurashadi, ammo mutloq xulosa chiqara olmaydi. Sa’dulla Siyoyev qissada tarixiy shaxsning o‘ziga xos jasoratini, insoniy fazilatlarini, istirobalarini juda teran talqin etgan. Ayniqsa, uning yoshlik chog‘laridagi bilm olish ilinjidagi hayotini ham go‘zal lavlarda aks ettirgan. Shayboniyxon Buxoroda madrasada tahsil olgan, bu yillar ancha murakkab hayot yo‘lini bosib o‘tishga imkon yaratgan, ammo u tinimsiz va sabot bilan ilm oladi: “Buxoro. Labihavuz yaqinidagi chog‘iroqqina xonodon. Hovliga kiraverishdagi kichkina hujrada o‘n besh-o‘n olti yoshlardagi durkun bolakay oldidagi lavhaga egilgancha Qur‘on tilovat qilib o‘tiribdi. U qiyiq ko‘zlarini yumib, oyatlarni ichida qayta-qayta takrorladi” [5, 6-bet]. Haqli tarzda qayd qilinganidek, yoshlik chog‘larida tinimsiz ilm olish ilinjida harakat qildi, hayotning turli xil murakkabliklarini engib o‘tishga majbur bo‘lgan. Aslida uning qalbidagi,

kechinmalaridagi qarashlarga e'tibor qaratilsa, ma'naviy dunyosi yanada teronroq ko'zga tashlanadi. Horigan ko'zlarini tin oldirish uchun, horg'inlik bilan tashqariga nazar tashlar ekan ajoyib bir harakatning guvohi bo'ladiki, yozuvchi bu tasvir orqali uning ruhiy olamidagi o'ziga xos mulohazalarni yuzaga chiqarishga intiladi. Tshqarida katta balxtut g'arq pishgan, meaning ko'pligidan erga ham to'kilganligini kuzatib turar ekan, uning xayolini tut talashayotgan jaydari chumchuq bilan makkai musicha egallaydi, shu voqelikni kuzatar ekan xayoliga juda yaxshi fikr kelib, insoniyatning tinimsiz harakatlariga qiyos qiladi: "Baayni odamlarning o'zi, - deb xayollandi, - shuncha meaning ustida tursalar-da ko'zları to'ymaydi, bir-biridan qizg'anishini ko'ring! Axir bu tutni butun bir bog'ning qushlari ham eb ado qilolmaydi-ku? Yo ajab" [5, 6-bet]. Talqinlarga nazar tashlar ekanmiz, insonning ruhiy-ma'naviy olamidagi ziddiyatlar, olam va odamni anglash yo'lidagi urinishlar ko'z o'ngimizda jonlanadi. Muhammad Shayboniyxon xotira va xayollarga berilib o'tirar ekan, ustozning xonaga kirganini ham sezmay qoladi.

Adabiyotlar:

- 1.Doniyorov X. O'zbek xalqining shajara va shevalari. Monografiya. Ikkinchি nashr. – Toshkent, "Navro'z" nashriyoti DUK, 2017. – B. 136.
- 2.Muqumov Z. Qilich va qalam sohiblari (Davlat arboblari haqida tarixiy lavhalar). Risola. – Samarqand, SamDU nashri, 2013. – B. 160.
- 3.Fazlulloh Ibn Ruzbehon Isfahoni. Mehmonnomaiy Buxara. – Moskva, Nauka, 1976. – Str. 195.
- 4.Nasirov A. Badiiylik va tarixiy haqiqat. Monografiya. – Turkiya, Istanbul, Kesit, 2019. – B. 140.
- 5.Rajabov Q. Adibning yangi tuhfasi. Ma'limot uchun qarang: Siyoyev S. Dashti qipchoq lochini (yoxud Shayboniyxon qissasi). Qissa, hikoya, esselar. – Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2021. – B. 288.
- 6.Насиров А. Искусство и реальная жизнь. Монография. – Турция, Стамбул, – КЕСИТ, 2019. – С. 139.
- 7.Насиров А. Художественная интерпретация хронотопа в романах Одила Якубова // Академия: Международный междисциплинарный исследовательский журнал ISSN222-49-7137. Импакт-фактор SJIF 2020: 7.13. ул. 498-501.
- 8.Насиров А. Ард-конфликт в романе «Бунт и покорность» Укугбека Хамдама // Наука, исследования, разработки // 32. // 2. Берлин 30.08. 2020 - 31. 08. "Алмазный торговый тур". 2020. ISBN: 978-66401-65-5. 208-211 – ул.
- 9.Насиров А. Выражение духовных переживаний в искусстве // Международный журнал интегрированного образования // Том 3, выпуск XI, ноябрь 2020 г. Импакт-фактор 2020: 7.03. стр. 181-182.
- 10.Nasirov A. Poetics of Odil Yakubov's novels. Monograph. - Tashkent, "Fan" publishing house, 2012. - P. 160.